

МО'МИНЖОН ТОШҚИН - JADID ADABIYOTINING SO'NGGI VAKILI

Sherg'oziyeva Gulnozaxon Adaxamjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
shergoziyevagulnozaxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik namoyanlaridan biri, jadidchilik adabiyotining so'nggi vakillaridan biri Mo'minjon Muhammadjov hayotiy faoliyati, o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rni xususida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, adibning tahsil yillari, ilmiy faoliyati, ijod yo'li masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar. Mo'minjon Muhammadjonov, Toshqin, "Turush urunishlari", "Toshkent shoirlari", "Qonli kun" pesasi, "Erk ashulalari", "Oq otlik o'g'lon", "Nasoyih ul-atfol", Mehtarobod, Mulla shalg'am, Miq va Mim, Mulla Tirtiq.

XIX asr oxirlarida boshlangan chor mustamlakachiligi XX asr boshlariga kelib Turkiston o'lkasida kuchayib bordi va buning natijasida Markaziy Osiyoning ko'p shahar va qishloqlarida jadidchilik harakati avj ola boshladi. Jadidchilik harakatining maqsadi o'sha davr hamda mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotini isloh qilishga, yangi tizim yaratishga qaratilgan edi. XX asr boshlari nafaqat o'zbek xalqi, balki o'zbek adabiyoti namoyondalari uchun ham juda og'ir va turli sinovlarga to'la davr bo'ldi. O'zbek adabiyoti vakillari qiyin damlar va katta yo'qotishlarni o'z boshidan o'tkazdi. Xususan, bu davr adabiyoti namoyandalari orasida o'zlarining ma'rifatga intilish, erk va ozodlikni kuylash, milliy tilni tiklash, omi xalqni savodli qilish maqsadlari yo'lida jonini, umrini tikdilar va bu maqsadlari yo'lida sobit turdilar.

Shunday qilib, XX asr boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Bugungi kunda esa bizning oldimizda jadidchilik adabiyotini va ularning vakillarini o'r ganish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ulardan biri XIX asr oxiri XX asrda yashab ijod qilgan Mo'minjon Toshqinning hayoti va ijodi hali adabiyotshunoslikda maxsus monografik tarzda o'r ganilmagan. Adabiyotshunoslik ilmidagi bu bo'shliqni to'ldirish zarurati seziladi. Xususan, uning asarlari hozirga qadar to'laqonli ravishda o'r ganilmagan, tabdil va tahlil to'laqonli amalga oshmagan. Ammo keying yillarda bu borada bir muncha ishlar yo'lga qo'yildi¹.

Mo'minjon Muhammadjonov 1883-yilda Toshkent shahrida Ko'kcha dahasi Pichoqchilik mahallasida tavallud topgan. U yozuvchi, ma'rifatparvar, tarjimon, mudarris, jadidchilik harakatining namoyandasi sifatida Toshqin taxallusi bilan ijod qilgan. "Mushtum" gazetasida Mehtarobod, Mulla shalg'am, Miq va Mim, Mulla Tirtiq taxalluslari bilan tanqidiy-hajviy she'rlar yozgan. Eski mакtabda tahsilni

¹Mo'minjon Muhammadjonov Toshqin. "Turush urunishlari"(f.f.d. M.Tojiboyeva nashrga tayyorlagan). T. MUMTOZ SO'Z 2015.

boshlagan bo'lsa-da, u yerda hech narsa o'rganolmay, otasi mulla Muhammadjon Karimjon o'g'lidan savod chiqargan. Otasi ancha savodxon kishi bo'lib, xat yozishni juda yaxshi bilmasa ham tojikcha va arabcha kitoblarni yaxshi mutolaa qilar edi. Beshyog'och daha O'zbek mahallasidagi madrasada qo'qonlik Muhammad Rasul domladan yozishni o'rgangan. Otasi kambag'al uzangisoz usta bo'lib, ro'zg'ordan oshinib farzandlarining o'qishiga mablag' topib berolmagan. Shu sababli Mo'minjon Muhammadjonov mullabachchalarning hujra va bog' xizmatlarini qilib, yoz kunlari mardikorlik qilib o'qigan. Ota-onasi tif kasali bilan vafot etganlaridan so'ng, ikki ukasi va ikki singlisini amakisi Ibrohim akaga topshirgan va yana mardikorchilik qilib o'qishni davom ettirgan. Shu tariqa Toshkentdag'i Sharafboy, Beklarbegi madrasalarida, keyinchalik Ufadagi madrasayi Oliyada tahsil olgan. Turli joylarda eski maktablarda o'qituvchilik qilgan. 1919-yilda Uchinchchi Oxunguzar mahallasida joylashgan 9-“Javhari Forobiy” maktabida muallimlik qilgan, keyinroq shu maktab mudiri bo'lib ishlagan. Toshkent, Namangan, Qo'qon, Andijon, O'sh, Jalolobod, Xo'jand, Shahrisabz va ko'plab shaharlarda yangi usuldag'i maktablar ochgan. Xivada maorif ishlari endigina rivojlanayotgan 1920-yilda Xiva maktablarida kunduzi inspektor bo'lib ishlagan va kechqurunlari kurslarda katta yoshdag'i kishilarni o'qitgan. Uning bilimliligi va yaxshi muomalasi tufayli Xorazm xalqi orasida uning obro'e'tibori juda yaxshi edi. Lekin bu yerning havosi unga yoqmay, yuzlarida shish paydo bo'ladi va uning sog'ligida jiddiy muammo paydo bo'lib, shifokorlar tavsiyasi bilan bu yerdan ketishga majbur bo'lgan.

Mo'minjon Toshqin “Sadoyi Turkiston”, “Ishtirokiyun”, xotin-qizlar uchun chiqadigan “Yangi yo'l”, Xorazmda chiqadigan “Inqilob quyoshi” gazetalarida va “Maorif”, “Mushtum” jurnallarida ishlagan, ularda turli maqolalari va she'rlari chop etilgan. “Maorif” jurnalida adabiy xodim va korrektor bo'lib ishlagan.

“Inqilob quyoshi” gazetasida tanqidiy maqolalari va she'rlari bosilgan bo'lsa, 1923-yildan e'tiboran “Mushtum” jurnali chiqa boshlagach, unda hajviy she'r va xabarlari bosilib turgan. 1925-yilda “Mushtum” jurnaliga sarkotib bo'lib ishga kirgan va shu paytdan e'tiboran uning ijodida anchayin o'sish kuzatilgan. Shu yili “Koorperativ zuluklari”, “Bo'yoqchi tutosh” kabi kichik sahna asarlari yozgan. Bu sahna asarlari o'sha paytlarda pesalar yo'qligi sabab Toshkent Chorsuvidagi sirkda tomoshaga qo'yilgan. Har ikki sahna asari “Qizil O'zbekiston” gazetasida ishlovchi mashhur feletonchi Komil Aliyev maqtoviga sazovor bo'lган. So'ngra hamkasbi Ziyo Said bilan hamkorlikda “Qonli kun” pesasini yaratadi. Bu sahna asari 1916-yil Toshkentdag'i mardikorchilik qo'zg'oloniga bag'ishlangan edi. Bu sahna asarini Tashtram ishchilarining teatr havaskorlari to'garagi a'zolari 1925-yili “Kolliziya” teatrda sahnaga qo'yganlar. Shu asar qo'yilgan kuni tomosha zal liq to'la bo'lib, bilet yetishmay qolgan. Bu asar xalqqa juda manzur bo'lganidan, 1926-yili O'zbekiston Davlat nashriyoti kitob qilib bosib chiqargan. Shundan so'ng bu nashriyot “Turush

urunishlari” asarini ham bosib chiqargan. Eski turmushning chirkin tomonlarini ro’yi rost olib bergani uchun bu asari ham kitobxonlarga manzur bo’lgan.

Mo’mjon Toshqin asarlari orasida “Toshkent shoirlari” tazkirasi alohida o’rin tutadi. Oybek daldasi bilan yuzaga kelgan bu asar an’anaviy tazkira usulida bo’lib, uni o’z kuzatuvchilari va shahid bo’lgan odamlarining ma’lumotlari asosida yozgan va boshqa viloyatlarda tug’ilib, Toshkentda muqim yashab qolgan bir qator shoirlarni ham ehtirom bilan qalamga olgan.

Adibning ana shunday noyob asarlaridan yana biri “Adabiyot qoidalari”dir. Mo’mjon Muhammadjonov o’g’li unga kamtarona ravishda “Til va adabiyotga oid qisqacha turli qoidalalar” deb nomlagan va qavs ichida “Qo’llanma yo’sinida yozildi” deya izoh bergen.

Uning yana “Eski maktab turmushi yoki tolib” (Toshkent, 1923; 1926) asari, “Nasoyih ul-atfol” (Toshkent, 1912; 1916) nomli o’quv kitobi, “Qizil nashtar”(Tojikiston, 1936) nomli tanqidiy she’rlar to’plami, “Erk ashulalari” (Tojikiston, 1936) va “Xayroh bibi” (Tojikiston, 1936) kabi kitoblari ham mavjud.²

Mo’mjon Muhammadjonov tarjima bilan ham shug’ullanib, turli tillargan qator asarlarni o’zbekchaga o’girgan. “Diniy qurbanlar”-Chig’atoy asari (tatarchadan tarjima). 1930, O’zgiz nashri. “Pomir hikoyalari”.-“Hikoyahoi Pomir” nomli tojikcha kitobdan tarjima, 1932. O’zgiz nashri. Nizomiyning “Layli Majnun”idan 1000 misrani she’r bilan tarjima qilgan.-“Guldasta” to’plami, 1947. “Yahudiyhoyi Buxoro”ning “Buxoro yahudiylari” nomli tarjimasi (Buni Sadriddin Ayniy yozgan bo’lib, Mo’mjon Toshqin tarjima qilgan, O’zgiz qilgan). “Oq otlik o’g’lon”-Taxmasuf asari. Ozarbayjonchadan tarjima.-Toshkent,1959. Uzdavnashr.

Alisher Navoiyning “Devoni Foni” asarining ikki jildiga kirgan g’azallarining aksariyat qismini forschanan o’zbekchaga tarjima qilgan. Tojikistonlik adabiyotshunos olim Murodiy (Tojiboyev Hojimurod) nashrga tayyorlagan “Devoni Foni” asari qo’lyozmasinng bir jildiga kiritilgan 267 g’azalning aksariyat qismini hamda keying jildiga kiritilgan 285 g’azalning ham ko’p qismini o’zbekchaga o’girgan.³

Adib Mo’mjon Muhammadjonov 1965-yilning 12-sentabr kuni 82 yoshida olamdan o’tdi. Uni Chig’atoy qabristoniga dafn qildilar. G’afur G’ulom uy-muzeyi sobiq ilmiy xodimasi Dilafro’z Jalilovaning ta’kidlashicha, adibning yotog’idagi qutida o’zbek teatri tarixi, rus chorizmining Xorazmni istilo qilishi, Qofqaz taassurotlari va boshqa mavzulardagi asarlari, ko’pdan ko’p tarjimalari, yillar davomida to’plangan manbalari qo’lyozma holida qolib ketdi. Mo’mjon Muhammadjonov umrining oxirgi yillarda kasalxonada yotgan paytda uning “Teatr

²Jalilova D. Toshqinning hayoti va ijodiylar faoliyati. “O’zbek tili va adabiyoti” junali 2012-yil 6-son

³navoi.natlib.uz

tarixi”, “Xorazmning rus chorizmi tomonidan istilo qilinishi”, “Milliy musiqa tarixi” va boshqa mavzularga oid bir qator asarlari qo’lyozma holida yotar edi.

Adib hayoti davomida bir umr ham moddiy, ham ma’naviy qiyonalib yashadi. Hayoti yoshlikdan nochorlik va yo’qchiliklar bilan boshlangan edi, shu tarzda yakun topdi. Maorifga qancha xizmat qilgan bo’lmasisin, u ham o’sha davr mafkurasi tazyiqlaridan chetda qolmadı. Hatto 1916-yilda mardikorchilikka jo’natishadigan bo’lib qolganida ham, “Muallimlar mardikor olinmaydi” degan buyruqqa qaramasdan yangi maktab dushmanlarining qistovi bilan olib ketiladigan bo’lib turganda, komissiyaga ariza qilib zo’rg’a qutuladi, lekin o’zi va amakisining o’rniga ukasi Xasanni borishini talab qilishadi. Shunday qilib, bir amallab mardikorlikka borishdan qutulub qolgan, biroq ukasi mardikorlikdan og’ir xastalikka chalinib kelgan va vafot etgan.

Yo’qchilik sababli yoshi qirqdan oshganda tanish-bilishlarining yordami bilan uylangan adib, turmush o’rtog’ining ham o’qib bilimli bo’lishiga ko’maklashadi. Turmush o’rtog’i Xadicha Toshkentda Darhon mahallasida Muxtoriyat maktabi qoshida ochilgan qizlar sinfiga muallima bo’lib ishlay boshlaydi. Shu yerda to’rt yil ishlagandan so’ng u vafot etadi. Undan uch yoshli Erkin ismli qizcha yodgor qoladi.

Mo’mjon Muhammadjonov jadidlar bilan yelkama-yelka xizmat qilib jadidchilik rivojiga o’z hissasini qo’shgan. Andijonda Cho’lpon, Toshkentda Hamza bilan hamkorlik qilgan. Abdulla Qodiriy bilan “Mushtum” jurnalida birgalikda ishlagan, Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hoji Muin, G’ozi Yunus, Mirmuhsin Shermuhammedovlar kabi ko’plab ma’rifatparvarlar qatori xalqqa xizmat qilib, el-yurtni jaholat botqog’idan olib chiqish uchun kamarbasta bo’lib xizmat qilgan, qator asarlar yozgan va yuqorida yozuvchilar va boshqa ma’rifatparvarlar haqida qimmatli ma’lumotlarni keltirib o’tgan. Qator tarixiy voqealarni ham kuzatuvchisi, ham ishtirokchisi sifatida bu voqeliklarni bir qancha asarlarida bor holicha tasvirlab bergen. Bu bilan ham tarixiy voqealarni o’z ko’zi bilan ko’rgan tarixiy shaxs, ham uni keng kitobxonlar ommasiga yetkazib beruvchi yozuvchi sifatida qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo’mjon Muhammadjonov. Turmush urunishlari. -Toshkent: G’afur G’ulom nashriyoti, 1969.
2. Mo’mjon Toshqin. «Turmush urunishlari». -Toshkent: MUMTOZ SO’Z, 2015.
3. Jalilova D. Toshqinning hayoti va ijodiy faoliyati // «O’zbek tili va adabiyoti» jurnali, 2012. 6-son.
4. navoi.natlib.uz